

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



Rektor _____ Sh.Sirojiddinov

2019 yil 11 " 07



Ro'yxatga olindi: № MD-5321100-3.05

2019 yil 17 " 08

ILMIY TADQIQOT METODOLOGIYASI

FAN DASTURI

Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar soha

Ta'lif sohasi: 120000 – Gumanitar fanlar

5A120101 – Adabiyotshunoslik (O'zbek adabiyoti)

Mutaxassisliklar: 5A120101 – Adabiyotshunoslik (Olyi adabiyot kursi)

5A120104 – Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik

TOSHKENT – 2019

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmlar fuoliyatini Muvotiqlashtiruvchi Kengashning 2019 yil "17" 08 dagi 4-soni buyonomasi bilan ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2019 yil "1" 10 dagi 826-soni buyromining 2-lovusi bilan fan dasturi ro'yxati tasdiqlangani.

Fan dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida ishlub chiqildi va turdosh oly ta'lim muassasalarini bilan kelishildi.


Tuzuvchilar:


- | | | |
|-------------|---|--|
| B.Karimov | - | ToshDO'TAU, "Adabiyot nuzariyasi va zamonaviy adabiy jarayon" kafedrasи mudiri, filologiya fanlari doktori, professor |
| Hamrayev K. | - | ToshDO'TAU, "Adabiyot nuzariyasi va zamonaviy adabiy jarayon" kafedrasи kattna o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori |

Taqrizchilar:

- | | | |
|-------------|---|--|
| Yoqubov I. | - | ToshDPU professori, filologiya fanlari doktori |
| Usimonov O. | - | ToshDO'TAU, "Adabiyot nuzariyasi va zamonaviy adabiy jarayon" kafedrasи dotsenti, filologiya fanlari nomzodi |

Fanning o'quv dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti o'quv-uslubiy kengashida tavsiya qilingan (2019-yil "1" 07 dagi 11-soni bayonnoma).


Alisher Navoiy


6/1

I. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limgagini o'rni

Mustaqil taraqqiyot yo'li mamlakatimizda ilmiy izlanishlar uchun keng imkoniyatlar eshigini ochdi. Ta'limning magistratura bosqichida "Ilmiy tadqiqot metodologiyasi" fanini o'qitishning joriy qilinishi yosh filologlar ijodiy faoliyatini qo'llab quvvatlash, ularning ilmiy izlanishlari uchun sharot yaratish va ijod mahsullarini rag'batlanirish yo'lidagi dadil qadam bo'ldi.

Bir necha yillar davomida ushbu fan predmeti, vazifalarini yoritish, fan doirasida o'rganiladigan asosiy masalalar mazmun-mohiyatini aniqlash, ilmiy bilish, metod, metodologiya, metodika tushunchalari mohiyatini anglash, ilmiy faoliyatning nazariy asoslari, tamoyillarini tayin etish, ilmiy tadqiqot tiplari va metodologik yondashuvlari bilish, jamiyatni demokratlashtirish va bozor iqtisodiyoti tamoyillari asosida isloh qilingan iqtisodiyot sohasidagi o'zgarishlarning tabbiy va ijtimoiy fanlarga ta'siri masalalarini yoritishdek dolzarb masala sof falsafiy negizlarda yoritiladi.

Mazkur fan dasturi 5A220101- Adabiyotshunoslik (tillar va tadqiqot yo'nashlari bo'yicha) magistratura mutaxassisligi uchun mo'hallangan.

II. Fanning maqsad va vazifalari

"Ilmiy tadqiqot metodologiyasi" fanning asosiy maqsadi ilmiy tadqiqot dasturini tuzish va unda nazariya va amaliyot birligiga rivoja qilish malakalarini shakllantirish, shuningdek ilmiy ijodkorlik mohiyatini faol tarzda anglash va magistrantlarda ilmiy ijodkorlik malakasini shakllantirishdan iborat.

Fanning bosh vazifasi esa ilmiy tadqiqot ishini tayyorlashda ilmiy izlanish, ilmiy dalillarning rolini anglash, bilimdan asosiy metodologik vosita sifatida foydalanishdan iborat.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikina va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. **Talaba:**

- adabiyotshunoslik va tilshunoslikning eng so'nggi yutuqlari asosida ilmiy ijod tabbiyi, xususan, badiiyatni his etish, anglash xislatlari haqida **biliinga ega bo'lishi;**

- mustaqillik yillari adabiyotshunosligi hamda adabiy tanqidchiligi metodologiyasi yangilanayotgani: Sharq va G'arb ilmiy-falsafiy qarashlari milliy asosda sintezlashuvi, adabiy jarayon muammolariga yangicha konsepsiylar asosida yondashish shakllangani, badiiy asarni baholashda umumbashariy mezonlardan kelib chiqish bosh tamoyilga aylangani, ijodkor individual ma'naviy-ruhiy olami taftishiga e'tibor ortgani haqida **ko'nikmaga ega bo'lishi;**

- milliy-estetik tafakkur namunalarida adabiy hodisalarini tahlil qilishdagi uslubiy turfalik ortgani, adabiy-nazariy konsepsiyanı shakllantirish yo'lidagi izlanishlar ijod erkinligi, milliy o'zlik va o'zbekona qadriyatlargacha e'tibor samarasi ekanini uqtirish ***malakalariga ega bo'lishi lozim.***

III. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

1-Modul. Ilmiy tadqiqotning nazariy asoslari

1-mavzu. Fan – ijtimoiy-madaniy hodisa

Fan tushunchasining keng va tor ma'nolari. Fan taraqqiyotining asosiy bosqichlari. Fan taraqqiyotiga ijtimoiy voqelevning ta'siri. Fan – dunyoqarash shakli. Fan ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida bilim, faoliyat va ijtimoiy institut. Fan tarixiga oid yondashuvlar: internatsionalizm va eksternalizm. Fan tarixi taraqqiyotining asosiy modellari. Fanning funksiyalari: madaniy funksiyasining o'ziga xos xususiyatlari. Fanning ijtimoiy tartibga solish funksiyasi. Bevosita bonyodkor kuch sifatidagi fanda neytrallik va ijtimoiy buyurtmaning namoyon bo'lishi. Fan siyosat vositasi. Fanning ijtimoiy kuch funksiyasi. Haqiqiy bilimni yaratish funksiyasi. Mafluraning fanga munosabati va uning modellari: qoralash, befarqlik, qahnamolik va ekspluatatsiya qilish. Fanni belgilovchi ijtimoiy-psixologik omillar. Fanning difürensiatsiyasi va integratsiyasi.

2-mavzu. Fan – bilishning maxsus shakli

Fan tasnifiga oid qarashlar tarixi. Ruh va tabiat haqidagi fanlar. Nomotetik va ideografik metodlar. Dinamik va statik qonuniyatlar. Fan ilmiylik mezonlarining tarixiyligi. Ilmiylik mezonlarining tasnifi. Bilish me'yorlari va ideallari. Dunyoning ilmiy manzarasi. Ilmiy bilimga nisbatan analistik va sintetik yondashuv. Analistik bilim tafsilotlari. Sintetik bilimda yangi mazmunning yaratilishi. Fandagi izchillik, ishonchlik, asoslanganlik, isbotlik. – tarixiy amaliyat haqiqatning universal mezoni. Fanlar (texnikaviy, tabiiy, fundamental, amaliy, nazariy va eksperimental) ning o'zaro aloqasi va-biridan farqi. Sababiyat va qonuniylik fanning barcha jahbalarida hukm suruvchi fundamental konstanta.

Ijod va ilmiy tadqiqot – bilish faoliyatining mahsuli. Ilmiy ijodning evristik xarakteri. Fan tarixida ijod muammosi. Sharq va G'arb mutafakkirlarining ijodga oid qarashlari. Ilohiy ijodkorlikning o'ziga xos xususiyatlari. Bilish faoliyatida ijod va mehnat uyg'unligi. Ijodning amal qilish xususiyatlari. Ilmiy ijodning o'ziga xos xususiyatlari. Individual ijodiy faoliyat. Yangi va eski bilimlarning o'zaro

bog'liqligi. Ijod – yangi qadriyatlami yaratish omili. Ijodkorming ilhom manbai. Daholikning o'ziga xos xususiyatlari. Ijodning dual xarakteri. Erkinlik – ijodning asosiy xossasi. Ilmiy-ijodiy faoliyatda olimning shaxsiy fazilatlari. Ilmiy tadqiqot faoliyatining namoyon bo'lish shakllari. Ilmiy tadqiqotning boshqa ijod shakllari bilan aloqadorligi. Ilmiy tadqiqotning xossalari. Badiiy ijod bilan bog'liq ilmiy tadqiqot. Badiiy ijod – ijtimoiy ongning maxsus shakli. Texnik (ixtirochilik va loyihalashtirish), pedagogik tadqiqot turlari. Hamkorlikdagi tadqiqot. Zamonaliviy ilmiy tadqiqot kontseptsiyalarini.

3-mavzu. Ilmiy tadqiqot mavzusini tanlash va uning dolzarbligini asoslash.

Muammoning o'rganilganlik darajasini aniqlash

Mavzu tanlashda ilm sohasidan, mavzuga oid izlanishlar va muammolardan yaxshi xabardor mutaxassisning érdami, maslahatiga tayanish. Mavzu tanlashga ta'sir etuvchi ob'ektiv omillardan xabardor bo'lish. Tanlanadigan mavzu ijtimoiy taraqqiёт maqsadlari va vazifalari bilan bog'liq bo'lishi. Tanlanadigan mavzu g'ayrimadaniy bo'lmasligi. Tadqiqotchining ilmiy qiziqishini hisobga olish. Mavzu tanlashda shaxs o'zining ma'naviy-axloqiy tajribasini, diniy-transsensual qarashlarini ifoda etishi. Tadqiqotlarda mavzu (muammo)ning ishlanganlik darajasini aniqlashda ma'lum bir ilmiy mezonlar amal qiladi. Ilmiy tadqiqot ma'lum bir konsepsiya, qarash va maqsad bilan o'zini chegaralashi. Tadqiqotning zamon talablari va muammolari bilan bog'liq bo'lishi.

2-Modul. Ilmiy tadqiqotning amaliy asoslari

4-mavzu. Tadqiqotning konsepsiysi, maqsadi va vazifalarini shakllantirish

Tadqiqotning ilmiy-nazariy konsepsiysi, maqsadi va vazifalari bilan mavzuni tanlash o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjudligi. Ilmiy konsepsiya tadqiqotning qaysi sohaga taalluqli ekanini namoyon etishi. Konsepsiya tadqiqot mohiyatiga zid kelmasligi. Konsepsiya betakror, innovatsion g'oyalarning ifodasi bo'lishi. Konsepsiya dogma emasligi. Tadqiqotning maqsadi yaxlit, aniq bo'lishi.

5-mavzu. Ilmiy tadqiqot metodlari. Analiz va sintez

Ilmiy-nazariy izlanishlarda obyekt (predmet)ni analiz va sintez qilish an'anaga aylanganligi. Analizdan maqsad butunga xos bo'lgan xususiyatlar, belgilari, qonunlarni topish, qismalarni butun orqali ideal holatga yetish imkoniyatlarini izlash ekanligi. Analiz metodi klassifikatsiya va differensiatasiya

usullariga tayanishi. Klassifikatsiya obyekt (predmet) qismlarini, bo'laklarini yiriklashtirish, ya'ni bir-biriga funksional yaqinlarini birlashtirish orqali o'rganish usuli ekanligi. Differensiatsiyalash – bugunga qarashli, ammo funksional bir-biriga bog'liq bo'lмаган har xil qismlar, bo'laklarni o'rganish.

Sintez analiz metodi erishgan, yetgan fikr, xulosalarni umumlashtiruvchi tadqiqot metodi ekanligi. Sintez metodi umumfalsafiy xulosalar chiqarishga xizmat qilishi. Induksiya va deduksiya.

6-mavzu. Ilmiy tadqiqotda monostistikva polistikistikasublari

"Monostistik" deganda ilmiy tadqiqotda bir stil eki bir uslubda fikrlash, yozish nazarda tutilishi. "Polistikistik" deganda ko'p uslublarga tayanish, ulardan foydalanish nazarda tutilishi. Ilmiy uslubning belgilari: fikrning tushunarliligi, lo'nda ifodalaniishi, ilmiy maqsadga muvofiqligi, ratsionalligi, konstruktiv xulosalarga olib kelishi, bahs-muroqaba va kelgusi izlanishlarga joy qoldirishi. Fikrlash, yozish, ifoda ilmiy maqsadga muvofiq kelishi. Ratsionallik va konstruktivlik. Ratsional fikr konstruktiv, biror real narsani, hodisani aql-u idrokka muvofiq tashkil etish, boshqarish yoki takomillashtirishga qaratilishi. Yozish uslubi ilmiy asarlarni o'qish va maqolalar, asarlar yozish jarayonida shakllanishi. Ilmiy tadqiqotlarda xulosalar chiqarish. Tahlil va uslub. Ilmiy tadqiqotda ijodkor shaxsi.

7-mavzu. Ilmiy tadqiqotda dalillashning roli

Dalilning ilmiy tahlili. Talqin qilish – dalilning muhim unsuri. Empirik dalilning muhim jihat. Dalilning moddiy-texnik yoki metodik tomoni.

Ilmiy bilim rivojlanishida fan dalillari umumlashtirilishining ahamiyati. Ilmiy dalillar, empirik gipotezalar va empirik qonunlar. Ilmiy dalil – ishonchli kuzatish, eksperiment mahsuli. Dalil – ilmiy bilishning empirik asosi.

8-mavzu. Ilmiy tadqiqot metodlariga axborot va axborot texnologiyalarining ta'siri

Axborot, ma'lumot va bilim uyg'unligi. Ilmiy tadqiqot jarayonida bilimlar hajmining o'sishi. Ilmiy bilimning informativligi. Ijtimoiy axborot. Ijtimoiy axborotni o'zlashtirishning ahamiyati. Ilmiy axborot. Ilmiy axborot – ijtimoiy axborotning bilish faoliyatida foydalilanligan alohida turi. Informatika. Axborotlashgan jamiyat konseptsiyasi. Texnologiya va texnikani o'zlashtirishning ilmiy tadqiqot faoliyatiga ijobiy ta'siri. Texnologiya va texnikani o'zlashtirishning alohida ijodkor ijod labaratoriysi tajribasini aniqlash jarayonini qiyinlashtirishi.

Ilmiy tadqiqot usullari va vositalari. Fanlar tutashgan joyda ilmiy bilimning integral sohasi. Informatika va ilmiy bilimning o`ziga xosligi.

9-mavzu. Ilmiy tadqiqotda tushunish va tushuntirishning ahamiyati

Tushunish va uning bilish bilan o`zaro munosabati. Hozirgi adabiyotlarda tushunish turlari, tiplari va darajalari. Germenevtik doira. Tushunish, tavsiflash, tushuntirish va talqin qilish. “Ma’no” tushunchasining talqini. Semiotika – belgilar va belgili tizimlarning xossalalarini o’rganuvchi fan. Ilohiy obraz va uni anglash, ifodalash yoki muayyan badiiy oraz nuqtai nazaridan tavsiflash. Dialog.

Ilmiy tushuntirishning deduktiv-nomologik modeli. Teologik yoki intensional tushuntirish. Tushuntirish va tushunishning o’zaro nisbati. Tushunish – ma’naviy madaniyatning moddiylashtirilgan ifodasi.

IV. Amaliy mashg’ulotlari bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg’ulotlari mavzu bo‘yicha reja va tavsija qilingan adabiyotlar asosida o’tkaziladi. Magistratura talabalari mustaqil tayyorgarlik ko‘rib, to‘plagan bilimlarini dars mashg’uloti vaqtida himoya qilishadi.

Amaliy mashg’ulotlarini uyushtirish bo‘yicha tavsija qilinadigan taxminiy mavzular:

1. Filologiya fani, badiiy ijod va ilmiy tadqiqot uyg‘unligi.
2. Adabiyotshunoslik va tilshunoslikda zamonaviy ilmiy tadqiqot metodologiyasi asoslari.
3. Ilmiy tadqiqot metodlari
4. Ilmiy muammo qo‘yish – murakkab va mushkul jarayon.
5. Ilmiy tadqiqotning dalillashning roli
6. Yozuvchi ijod laboratoriyasi.
7. Modellashtirish
8. Tushunish va tushuntirish
9. G‘ayrishuriy bilish va payqashning roli.
10. Olim professionalizmi.
11. So‘z va unga mas’ullik tuyg‘usi.
12. Kitobxonlikda ommaviylik va intellektuallik munosabatlari
13. Germenevtik talqin.
14. Roman morfologiysi.
15. Intensional tushuntirish.

Amaliy mashg‘ulotlar multimedya qurulmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akadem. guruhg‘a bir o‘qituvchi tomonidan o‘tkazilishi lozim. Mashg‘ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o‘tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo‘llanilishi maqsadga muvofiq.

V. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ishni tayyorlashda filologiya va o‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish mutaxassisligida tahsil olayotgan talabalarning tayyorgarlik darajasi, fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalananish tavsiya etiladi:

- amaliy mashg‘ulotlariga tayyorgarlik;
- darslik va o‘quv qo‘llanmalar bo‘yicha fan boblari va mavzularini o‘rganish;
- tarqatma materiallar bo‘yicha ma’ruza qismini o‘zlashtirish;
- o‘quv, ilmiy tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan tilshunoslik, adabiyotshunoslik va matnshunoslikning muayyan bo‘limlari yoxud mavzularini chuqur o‘rganish;
- muammoli o‘qitish uslubidan foydalaniadigan o‘quv mashg‘ulotlari.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari

1. Intentional va teologik tushuntirishning ahamiyati.
2. Allomalar fan rivojlanishining o‘ziga xos xususiyati haqida
3. Ilmiy tadqiqotning tiplari
4. Fanning differentsiatsiyasi va integratsiyasi
5. Ilmiy bilimda mavjud qoidalar va xulosalarning haqqoniyligi
6. Ijodiy faoliyatning turlari.
7. Metodlarning tasnifi.
8. Nazariy tadqiqot metodlari
9. Empirik tadqiqot metodlari
10. Umummantiqiy tadqiqot metodlari
11. Ilmiy konferensiya va unga ma’ruza tayyorlash yo‘llari
12. Ilmiy maqola tayyorlash sirlari
13. Magistrlik dissertatsiyasining ilmiy apparatini shakllantirish yo‘llari
14. Monografik tadqiqot va uming o‘ziga xosligi.
15. OAK nizomlarida dissertatsiyalarga qo‘yiladigan talablar.

VI Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

Asosiy adabiyotlar

1. Шермуҳаммедова Н. Фалсафа ва фан методологияси. – Т., 2009. –347 б.
2. Алемасов В., Мамадалиев Ш.О. Илмий тадқиқот: методология, методика, ижодиёт. Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2015. – 102 б.
3. Каримов Б. Адабиётшунослик методологияси (Филолог-магистрлар учун қўлланма). – Т.: Муҳаррир, 2011. –88 б.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргалиқда барпо этамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2016.
2. Мирзиёев Ш. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.
3. Каримов Б. Руҳият алифбоси. Адабий-илмий мақолалар тўплами. – Т.: Гафур Гулом номидаги наприёт-матбаа ижодий уйи, 2016. –280 б.
4. Норматов У. Ижод сеҳри. – Т.: Шарқ, 2007. –190 б.
5. Норматов У. Тафаккур ёғдуси. – Т.: Фикр медиа, 2005. –150 б.
6. Норматов У. Ижодкорнинг даҳлиз дунёси. – Т.: Мумтоз сўз, 2008. – 200 б.
7. Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик. – Т.: Шарқ, 2007. –230 б.
8. Солиқонов Й. Ҳақиқатнинг синчков кўзлари. – Т.: Алишер Навоий номидаги Миллый кутубхона, 2009. –170 б.
9. Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. – Т.: Шарқ, 2004. –250 б.
10. Қаҳрамонов Қ. Адабий танқид: янгиланиши жараёнлари. – Т.: Алишер Навоий номидаги Миллый кутубхона, 2009. –280 б.
11. Ёқубов И. Бадиий-эстетик сўз сеҳри. – Т., 2011. –260 б.
12. Ҳамдам У. Янгиланиш эҳтиёжи. – Т.: Фан, 2007. –220 б.
13. Фалсафа қомусий лугати. – Т.: Шарқ, 2004. –480 б.

Internet saytlari

4. www.ziyonet.uz
5. www.edu.uz

6. www.ozbekadabiyoti.com.

7. www.zivo.uz